Kuch-bilim va tafakkurda

Universitet OVOZI

Gazeta 1999-yil 22-dekabrdan chop etila boshlagan
№ 10 (187) 2017-yil oktabr

Guliston davlat universitetining ta`limiy, madaniy-ma`rifiy nashri

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Ta'lim sifati va samaradorligi oyligini tashkil etish to'g'risida

FARMOYISH

Bugungi kunda univrsitetda jami 3922 nafar talabalar 6 ta fakultet tarkibidagi 30 ta ta'lim yo'nalishlari va 4 ta magistratura mutaxassisliklarida tahsil olishmoqda. 30 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida mavjud bo'lgan 631 ta o'quv fanlaridan o'quv-uslubiy majmualar tayyorlangan. Ichki tarmoqda ishlovchi GulDU "Ta'lim portali"ga universitetda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslik, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy majmualarning elektron nusxalari joylashtirilgan. O'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini o'tkazish bilan bog'liq holda 27 ta ishlab chiqarish korxonalari, 31 ta o'rta maxsus hamda umumiy ta'lim muassasalari bilan shartnomalar tuzilib, o'quv rejalariga muvofiq amaliyot ishlari tashkil etilgan. Professor-o'qituvchilarning o'quv jarayoni bilan bog'liq tashkiliy, me'yoriy va joriy hujjatlari belgilangan namuna asosida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son farmoniga asosan rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilarning malaka oshirishlari bo'yicha universitet professor-o'qituvchilari tegishli tayanch oliy ta'lim muassasalarida malaka oshirib kelishmoqda. Shuningdek, professor-o'qituvchilarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli OTMda malaka oshirib kelishlari va tadqiqotlar olib borishlari bo'yicha dastlabki faoliyat yo'lga qo'yilgan, universitet professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyat ko'rsatkichi bugungi kunda 31%ni tashkil etadi.

Garchi olib borilgan faoliyat asosida universitetda qator yutuqlarga erishilgan bo'lsada, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning ishlab chiqarish korxonalari va muassasalarning talabiga mos holda tayyorlash bo'yicha ayrim kamchiliklarning mavjudligini alohida qayd etish mumkin. Bu kafedralarda ta'lim sifatiga alo`hida e'tibor berishni taqazo etmoqda. Shunga ko'ra kafedralarda ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish hamda Respublikamiz Prezidentining 2016 yil 30 dekabrda akademik, yetakchi olim va OTM rektorlari bilan uchrashuvi, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909 va 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151 Qarorlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida:

1. 2017 yilning 9 oktyabridan 9 noyabrigacha universitetda "ta'lim sifati va samardorligi oyligi" tashkil etilsin.

2. Ta'lim sifati va samaradorligi oyligida belgilangan vazifalar asosida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilib borish uchun universitetning ichki nazorat va monitoring bo'limida shtab (M. Abdualiyeva) va 1-ilovada keltirilgan tajribali, yetakchi professor-o'qituvchilar tarkibi asosida ishchi guruh tashkil etilsin.

3. Fakultet dekanlari va barcha kafedra mudirlariga universitetda ta'lim sifati oyligini o'tkazilishi

(Davomi 2-betda)

Pedagogika fakultetining 3-kurs talabasi Shohsanam Qayumova universitetimizda 1-bo`lib Islom Karimov nomidagi Davlat stipendiyasi sohibasi bo`ldi (2-3-betlarga qarang).

Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi

Talabalarning iqtisodiy fanlar bo'yicha olgan bilimlarini yanada mustaxkamlash uchun viloyatimizda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish korxonalari bilan mustahkam aloqa o'rnatish, bu korxonalarning rahbarlari va yetakchi mutaxassislari bilan doimiy, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish, ular ishtirokida master klasslar tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoni bilan yaqindan tanishuv orqali hamkorlikda ta'lim tizimini tashkil etish kutilgan natijalar berayapti. Ana shu maqsadda iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun mutaxassislik fanlari bo'yicha bir qator amaliy uchrashuvlar tashkil qilindi.

Jumladan, Iqtisodiyot yo'nalishi 3-bosqich talabalari 2017 -yil 5-6 oktabr kunlari "Baraka teks" MChJ shaklidagi qo'shma korxonada o'quv amaliyotida bo'lishdi. O'quv amaliyoti talabalarni "Real sektor korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyalari " fani bo'yicha egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlashga yordam berdi. Kafedra o'qituvchilari Bekzod Toshboyev, Muxtabar Nurmuxamedova va ushbu maqola mualliflari o'quv amaliyotini o'tkazishda bevosita ishtirok etishdi.

Amaliyot doirasida "Baraka teks" MChJ korxonasi bosh muhandisi Adil Cham va sex boshlig'i Maqsud Nazarovlar bilan ishlab chiqarish jarayoni bo'yicha suhbat uyushtirildi, ishlab chiqarish korxonasi bo'ylab har bir paxta tolasining qayta ishlanish bosqichi kuzatib borildi. Shu tariqa talabalar asosiy vositalarning ishlab chiqarish jarayonidagi ishlash mexanizmini batafsil ko'zdan kechirishga muvaffaq bo'ldilar.

Sirdaryo viloyatidagi yana bir yirik ishlab chiqarish korxonasi "Gul Ren Teks" MChJda ham 2017-yil 16-oktyabr kuni sayyor dars uyushtirildi. Ishlab chiqarish korxonasidagi har bir sex bo'ylab qilingan kuzatishlar talabalarda o'zgacha taassurot qoldirdi. Talabalar "Modeler" bo'limi, matolarni qirqish va bichish bo'limi, tikuv sexidagi ish jarayoni, ularning asosiy vositalari haqida ma'lumotlar olishdi, matoga gul bosish va quritish mexanizmlari, mahsulotlarni taxlash, qadoqlash jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar. Ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazilgan mashg'ulotlar shubhasiz, olingan nazariy bilimlarini yanada mustahkamladi. Bunday sayyor darslarni boshqa ishlab chiqarish korxonalari bilan ham o'tkazish rejalashtirildi.

Saida MAMAJONOVA,
Sherali MAHMUDOV
Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchilari

Ta'lim sifati va samaradorligi oyligini tashkil etish to'g'risida

(Boshlanishi 1-betda)

munosabati bilan 2 kun muddat ichida ish rejalarini ishlab chiqib, tasdiqlashga tavsiya etsinlar.

4. O'quv bo'limi (A.Aralov) va Fakultet dekanlari (E. Hamdamov, A.Yuldashov, H.Yodgorov, D.Toshtemirov, B.To'ychiboyev, M.Boyirbekovlar)ga universitetda ta'lim sifati va samaradorligi oyligi o'tkazilishi munosabati bilan dekanat va kafedralar hududida e'lon va ko'rgazmali yozuvlarni tashkil etsinlar.

5. Barcha fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga ta'lim sifati oyligi o'tkazilishi munosabati bilan har haftalik amalga oshirilgan ishlar yuzasidan universitet shtabi (M.Abdualiyeva)ga har hafta oxirigi kuni (shanba)da hisobot berib borishlari belgilab qo'yilsin.

6. Xodimlar bo'limi boshlig'i (Sh.Alimov), ichki nazorat va monitoring bo'limi (M.Abdualiyeva), axborot texnologiyalar bo'limi (O.Burxiyev) oylik davomida professor-o'qituvchilar va xodimlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini tashkil etsinlar (Ma'lumotlar bazasi ATM xodimlari tomonidan yaratilgan dastur asosida shakllantiriladi). Oylik davomida tashkil etilib yaratilgan ma'lumoltlar bazasi keyingi bosqichda o'quv yili va keyingi muddatlarda doimiy ishlashini ta'minlash belgilab qo'yilsin.

7. Oylik o'tkazilishi davomida birinchi haftada barcha o'quv va me'yoriy hujjatlar tegishli talab va tartib asosida to'liq shakllantirilishiga erishilishi bo'yicha qat'iy choralar belgilansin (me'yoriy hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi devonxona mudirasi (G.Toshmetova) va ilmiy kengash kotibi (O.Mamajonov) tomonidan nazoratga olinsin (tegishli hollarda rasmiylshtirish tartibi bo'yicha seminar va treninglar o'tkazilsin).

8. Tasdiqlangan ishchi rejada belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha har hafta dushanba kuni o'tkaziladigan universitet ishlab chiqarish yig'ilishlariga ishchi guruh raisi va fakultet dekanlari tomonidan hisobotlar berilishi belgilab qo'yilsin.

9. Oylik o'tkazilishi jarayonida AKT imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga erishish (O.Burxiyev), o'quv auditoriyalarida tegishli qulayliklarni ta'minlash (S.Qulmamatov), professor-o'qituvchilarning mehnat intizomiga to'liq rioya qilishlariga (Xodimlar bo'limi), talabalar davomadi va tegishli o'quv qurollariga ega bo'lishi va kiyinish madaniyatiga erishish (fakultet dekanlari, fan o'qituvchilari, kuratorlar, xotin-qizlar qo'mitasi) bo'yicha qat'iy chora-tadbirlar belgilash va monitoring olib borilishi (ichki nazorat va monitoring bo'limi) belgilab qo'yilsin.

10. Ishlab chiqilgan rejaga asosan birinchi qo'yilgan masala o'qitiladigan fanlardan adabiyotlar ta'minotiga erishish va ARMdan foydalanishni to'liq yo'lga qo'yish (O.Oqyigitov) bo'lib, bunda har bir fan o'qituvchisi oldiga dars o'tayotgan fani bo'yicha adabiyot ta'minotiga erishish vazifasi qo'yilsin. Ushbu qo'yilgan vazifa asosida kafedrada o'qitiladigan barcha fanlardan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarning to'liq ta'minotiga erishish maqsadida ishchi o'quv dasturida ko'rsatilgan adabiyotlarning nusxalari, fan o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan UUM, ko'rsatmalar hamda ilmiy adabiyotlar, tarqatma materiallar bilan boyitilishi bo'yicha chora-tadbirlar belgilansin. Kafedrada o'qitiladigan fanlardan barcha mavjud adabiyotlarning elektron nusxalari to'liq tayyorlanib, lotin alifbosiga o'girish bo'yicha ishlar amalga oshirilsin.

11. Har bir fan o'qituvchisining darslari va ochiq darslari tahlil qilish asosida belgilangan tartibda baholansin (ishchi guruh).

12. Kafedralarda o'qitiladigan fanlarning barchasidan laboratoriya yoki amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ishlanma va ko'rsatmalarning sifat ko'rsatkichlari oylik davomida qayta ko'rib chiqilsin (Ishchi guruh) va ayrim o'rinlarda yangiliklar kiritilib, lotin alifbosiga o'girilishi ta'minlansin. Shuningdek, laboratoriya mashg'ulotlari o'tiladigan fanlardan virtual stendlar yaratish bo'yicha rejalar tuzilsin.

13. Oylik davomida kafedrada o'qitiladigan barcha fanlardan professor-o'qituvchilarning darslarini tahlil qilish (Ishchi guruh) davomida talabalarning o'quv qurollari, kitob va daftarlar bilan kelish ko'rsatkichlari ham alohida tahlil qilinsin. Oylikning 2-haftasi davomida bu ko'rsatkichlarga to'liq erishilishi alohida belgilansin (Fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, fan o'qituvchilari va kuratorlar).

14. Kafedrada barcha professor-o'qituvchilar "Ta'lim sifati va samaradorligi oyligi" davomida oldilariga quyilgan vazifalarni bajarishlari shart. Ularga topshirilgan vazifa va ko'rsatmalarning bajarilishi oylik davomida hamda hafta kunlarida o'tkazligan seminarlarda (ishchi guruh), kafedra kunlarida o'tkaziladigan yig'ilishlarda, to`garak yig'ilishlarida, laboratoriya yig'ilishlarida muhokama qilinsin va kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha qo`shimcha tadbirlar amalga oshirilsin.

15. Oylik o'tkazilishi davomida professor-o'qituvchilarning eng yaxshi ishlanma, texnologiya va usullari oylik davomida o'tkaziladigan seminar va treninglar davomida targ'ib qilinsin (ishchi guruh) hamda OAV tomonidan yoritib borilishi yo'lga qo'yilsin (universitet tahririyat va nashriyot bo'limi M.Pardayev).

16. Ushbu farmoyishning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. H.Qo'shiyev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor B.Zakirov
6-oktabr 2017-yil
Guliston shahri

BOQIYSAN, TILIM!

"O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi talabalari bu yil til bayramini "Boqiysan, iftixorimsan, ona tilim!" shiori ostida o'tkazdilar. Universitet ilmiy ishlar bo'yicha prorektori A. Sulaymonov bo'lajak tilshunoslarni bayram bilan samimiy muborakbod etdi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent X. Tojiyev, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari, taniqli olimlar U.O'ljaboyev, R.Mahmudov va boshqalar o'zbek tilining o'tmishi, buguni va kelajagi haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan o'rtoqlashdilar.

Tadbir tashkilotchilari uni noan'anaviy tusda o'tkazishga alohida e'tibor berishdi. O'zbek tilining o'tmishda kamsitilishi, unga Davlat tili maqomi berilishi, gullab-yashnashi uchun yaratilayotgan omillar sahna ko'rinishlari orqali chiroyli namoyish qilindi.

xx xx xx

"Xorijiy tillar" yo'nalishi talabalari ham til bayramini munosib o'tkazishdi. Tadbirda asosiy e'tibor o'zbek tilini jahonga tanitish, buyuk adiblarimiz merosini ingliz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilish masalalariga qaratildi. Talabalar va o'qituvchilar Alisher Navoiy, Abdulla Oripov va boshqa ulug' ijodkorlarning asarlarini ingliz, nemis tillarida yangratishdi.

Ushbu tadbirda ishtirok etgan viloyatimiz shoirlari Hayot Shodmon, Alisher Nur o'zlarining yangi ijod namunalaridan o'qib berishdi. Universitet dotsentlari Umurzoq O'ljaboyev, Xonimqul Tojiyev, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi a'zolari Munavvar Pardayev, Bahriniso Norjigitovalar o'z fikrlari bilan o'rtoqlashdilar.

Bayram viloyat badiiy havaskorlari ijrosidagi dilrabo kuy va qo'shiqlar bilan yakun topdi. Tadbirni tashkil etishda jonkuyarlik qilgan ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi Salamat Hatamovaning xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz.

Dilnoza MAMANOVA,
Filologiya fakulteti talabasi.
Suratda: tadbirdan lavha

ISTE'DODNING OLMOS QIRRALARI

Shohsanamning Pedagogika fakultetiga kirib o'qishini sirayam tasodifiy hol deb o'ylamayman. U Boyovut tumanidagi 8-maktabga qadam qo'ygan dastlabki kunlaridan ustozi Feruza Bobojonovaga mehr qo'ygandi. O'z kasbining fidoyisi, barcha o'quvchilariga birday mehribon, g'amxo'r Feruza opa uning uchun hayotiy andoza bo'lib qolgan edi. Chunki harf tanitib, Shohsanamni kitoblar dunyosiga yetaklagan inson ham ilk ustozi Feruza opa bo'ladi.

Kitoblar... Ularga do'st tutingan hech qancha vaqt o'tmay mutlaqo boshqa odam bo'lib, dunyoga qayta kelishini Shohsanam maktab partasidayoq tushunib yetdi. Kitoblar uning chinakam sodiq do'stlari, kerak vaqtda yo'l

2

ko'rsatuvchi maslahatgo'yi bo'lib qoldi. Shuning uchun ham u maktabning mo'jazgina kutubxonasidagi kitoblarning deyarli hammasini o'qib chiqqan, har bir yangilikni, yangi kitobni ishtiyoq bilan kutardi.

O'qish, o'rganishning foydasi shu bo'ldiki, Shohsanam maktabdagi eng a'lochi o'quvchilar qatoridan o'rin oldi. Badiiy kitoblar uni fikrlashga, dunyoqarashini boyitishga, mantiqiy xulosalar chiqarishga, xushmuomala bo`lishga o'rgatdi. Eng muhimi, hayot haqidagi tasavvuri boyidi, irodasini mustahkamladi. U ko'p o'qishi tufayli ham maktabning peshqadam o'quvchilari qatoridan joy oldi.

Shohsanam 2010-yilda umumta'lim maktabining 9-sinfini a'lo baholar bilan bitirayotib, kelgusi hayotida nima qilish, qayerga o'qishga borish kerakligi haqida o'ylanmadi ham. Ustoz bo'lish baxtidan boshqa hech narsa kerak emasdi bu borada unga. Mana shu qanotli orzu uni Guliston davlat 2-Pedagogika kollejiga hujjat topshirishga da'vat qildi. Kollej jamoasi bu tirishqoq qizni o'z safiga qabul qilib adashmagandi. U tinmay o'qib, izlanar, kollej hayotining barcha jabhalarida tengqurlariga o'rnak

3

bo'lardi. Uning jamoat ishlarida, tanlovlarda, fan olimpiadalarida erishgan natijalari ham yomon emasdi. Masalan, 2011-yili matematika fanidan viloyat kollej va litseylari o'rtasida bo'lib o'tgan olimpiadada faxrli 1-o'rinni olib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Bundan tashqari kollejda bironta ommabop tadbir yo'q ediki, Shohsanam qatnashmagan, yoki tashkillashtirishga yordam bermagan bo'lsin. Biroq kollejdagi birinchi vazifasi o'qish, o'rganish, izlanish ekanligini bo'lajak pedagog yaxshi bilardi.

Shu tariqa kollej yillari ham ortda qolib, oliygoh talabasi bo'lish lavhamiz qahramonining navbatdagi bosh maqsadi bo'lib qoldi. Shohsanam dastlabki yili, ya'ni 2013-yilda Guliston davlat universitetiga hujjat topshirdi. Afsuski, shu yili talaba bo'lish baxti unga nasib qilmadi. Biroq ahdida qat'iy Shohsanam bundan tushkunlikka tushmadi. U o'z oldiga: "Hechqisi yo'q, kelgusi yilda albatta talaba bo'laman, grantga kirib o'qiyman!",- degan qat'iy maqsad qo'yib, tayyorgarlikka kirishdi. Kechalari ko'z yummay dars qilib, kitob ustida uxlab qolganlari haligacha esida.

Omad astoydil intilgan odamgagina

YUKSAK KAROMAT SOHIBI

O'zbek xalqining suyukli farzandi, atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga

Shu kunlarda xalqimiz O'zbekistonni sharqqa mash'al qilgan, respublika iqtisodi, madaniyati va ma'naviyatini yuksaklikka ko'targan, o'zbekning asl o'g'loni Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlashga astoydil taraddud ko'rayotir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov xotirasini abadiylashtirish va tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Qarori vatani, xalqi uchun buyuk xizmat qilgan insonga nisbatan hurmat - ehtirom ifodasidir. Shu munosabat bilan bugun Sharof Rashidov hayoti va ijodi haqidagi ayrim lavhalarni e`tiboringizga havola etamiz.

1.Ajdodga ehtirom

Sharof Rashidov respublikaning har bir go'shasini obod qilish bilan birga, xalqining madaniyati va ma'naviyatiga yuksak e'tirof bilan qaraganlar. Hatto bir ijodkor taqdiri yoki bir mashhur asar taqdiriga taqdirdosh bo'lganlar.

Adib Pirimqul Qodirov Zahiriddin Muhammad Boburning yorqin obrazini yaratish borasida Hindistonga borib, ulug' sarkarda va podsho yurgan yo'llari va tabarruk izlarini o'rganib keldi. Adib 20 yil tinimsiz ishlab, roman yozdi. Oqibat 1972-yilda asar Yozuvchilar uyushmasida yaxshi baho oldi va nashrga tavsiya etildi. Orada ko'zga ko'rinmas fitnachilar "Podsho Boburni madh qildi " deya romanni nashrdan to'xtatib qo'ydilar. Roman nusxasi olti yil adib stoli g'aladonida yotdi.

Mashhur shoir Maqsud Shayxzodaning vafoti munosabati bilan ehson oshi berilgan kuni Sharof Rashidov rahbarligida barcha ijodkorlar ishtirok etishgan. Shunda Sharof Rashidov:

-Mulla Pirimqul, "Sharq yuduzi"ning yubiley sonida (1967-yil oktyabr to'ntarilishining 50 yilligini nazarda tutganlar) sizning "Erk" qissangiz bosiladigan bo'ldi, chin qalbimdan qutlayman, - deb adibning cho'kkan ko'nglini bir bahya ko'targanlar. Boisi adibning "Yulduzli tunlar" romani muammo bo'lib turganini birinchi rahbar bilar edilar.

Sobiq sho'ro Yozuvchilar uyushmasining kotibi, adabiyotshunos Vitaliy Ozerov Toshkentga tashrif buyurganida adibning "Yulduzli tunlar" romani taqdiri bilan qiziqib qoladi. Nashr ishi muammo bo'lib turganini eshitib, birinchi rahbar bilan maslahatlashish uchun uning huzuriga kiradi. Roman nashri bo'yicha suhbatlashadilar.

Sharof Rashidov Vitaliy Ozerovga qarab: "Siz rus tiliga tarjima qilib, so'ng nashrga kirishsangiz, qanday bo'lar ekan",-dedilar. Vitaliy Ozerov rahbarning maslahatini ma'qul ko'rib, roman tarjimasini o'z zimmasiga oladi. Romanni rus tilida 200 000 nusxada chop ettiradi. Shundan so'ng "Yulduzli tunlar" romani o'zbek tilida nashr etiladi. Roman Sharof Rashidovning sharofati tufayli o'zbek xalqining suyukli mulkiga aylandi. Nainki xalq mulki, balki roman qahramoni Zahiriddin Muhammad Boburni buyuk shoir va davlat arbobi, fan va madaniyatning ulkan siymosi sifatida jahonga tanitdi.

2. Bir kitob taqdiri

Falsafa fanlari doktori , akademik Ibrohim Mo'minov O'rta Osiyo tarixida buyuk sarkarda Sohibqiron Amir Temurning mavqei haqida uzoq yillar izlanish olib borardi. Natijada "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan roli" degan mo'jazgina risolani yozib, nashr ettirdi. Kitob qaltis masalaga bag'ishlanganligini sezgan olim uning muhokamasida ishtirok etgan barcha professor, akademiklarga kitobning so'nggi varag'iga imzo qo'ydirib oladi. Kitob keng jamoatchilik orasida tarqaldi. "Вопросы истории СССР" jurnalida kitob haqida tanqidiy taqrizlar chiqa boshladi. Jurnal variantlari Toshkentda ham tarqalib, katta shov – shuvlarga sabab bo'ladi.

Mazkur kitob Moskvada tarixchilar orasida tanqid elagidan o'tkazilib, muallifga "feodalizm sarqitlarini tiriltirish" borasida ayb qo'yishdi. Bu tashvish respublikaning birinchi rahbari Sharof Rashidovni ham o'ylantirmasdan qo'ymas edi.

Sharof Rashidov kitobning Moskvadagi muhokamasida ishtirok etgan taniqli tarixchi olim Ahmadali Asqarovni o'z huzurlariga da'vat etib:

-Tarixchilar tariximizni himoya qilishga kirishinglar,- deya tarixchi olimni quchoqlab, unga katta hurmat ko'rsatganlar .

Shunday qilib, Sharof Rashidov Ibrohim Mo'minovning "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan roli" kitobini qizil mafkura tig'laridan saqlab qolganlar. Shu kitobdan boshlab Amir Temur tarixini aslicha va tarixiy prinsipda o'rganish ibtido oladi. Sharof Rashidov tariximizni aslicha o'rganishning karvonboshisi bo'ldilar desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

3. Yana bir kitob taqdiri

Sharof Rashidovday bag'rikeng, odamshavanda farzandi, buyuk arbobi va adibi borligi uchun o'zbek xalqi Yaratganga beadad shukr qilmog'i darkor. Bir umr xalq orzu-havaslarini, O'zbekiston manfaatini himoya qilib yashagan, umrini el-yurt xizmatiga bag'ishlagan bu komil inson vafotidan so'ng uning pok nomini qoralashga talay urinishlar ham bo'ldi. Ayniqsa, Moskvaning fatvosi bilan o'tkazilgan O'zbekiston kompartiyasining XVI plenumidan so'ng qoralash musobaqasi avj oldi. Taassufki, bu musobaqada Sharof Rashidov bir paytlar yaxshilik qilgan, martabasini ko'targan ayrim shogirdlari, taniqli adiblar, jurnalistlar ham chetda turmay, muhtaram zotga tuhmat toshlari otishdi.

Sh.Rashidov bilan bir marta suhbatdosh bo'lganlar ham uning cheksiz darajada kamtarligini, kamsuqumligini, amalparastlik, poraxo'rlik, maishatparastlik illatlarini yomon ko'rishini yaxshi bilishadi. Biroq respublikaga 24 yil birinchi rahbar bo'lgan pokdoman bir zotni ko'rolmaganlar dunyoda bor ayblarning hammasini unga taqashga erishishdi. Albatta, ularning ko'pi keyinchalik iflos kirdikorlari uchun tarix mag'zavasidan o'rin olishdi. Lekin qisqa vaqt mobaynida Rashidovning nomini loyga qorib ham ulgurishdi. Yaxshi ham haqiqatni bilguvchi va himoya qilguvchi insonlar o'zbek xalqi ichida son mingta edi. Shular qatorida turgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov xalqimizning sevimli farzandini to'la oqlash uchun o'zida iroda va matonat topa oldi.

Shundan so'ng vaqtli matbuotda, nashriyotlarda o'zbek xalqining sevimli farzandi, uning hayoti va faoliyati haqida ijobiy fikrlar bildirilgan maqolalar, risola va monografiyalar paydo bo'la boshladi. Bu borada yirik adabiyotshunos olim, GulDU professori Anqaboy Quljonov birinchilar qatori ishga kirishib, Sh.Rashidovni yaxshi bilgan davlat arboblari, oilasi, o'z kuzatishlari, arxiv materiallari asosida "Sharof Rashidov tirik!" nomli monografiya tayyorladi. Shunda ham ayrim markaziy nashriyotlar mutasaddilari har xil bahonalarni ro'kach qilib, kitobni bosmaslik payida bo'lishdi.

-Axir Rashidovni Prezidentimiz yoqlab turibdi-ku, nimadan qo'rqasiz?- derdi muallif kuyinib.

-Qo'rqishga qo'rqmaymiz-u shu kitob nomi sal yoqinqiramay turibdi-da,-deyishardi boshqa bahona topilmagach.

-Kitob nomini o'zgartirishning hech iloji yo'q,-deb oyoq tirab turib oldi domla qaysarlik bilan. Uch-to'rtta yangi nom variantini taklif qilsak ham foydasi bo`lmadi.- Men bu nomni "Rashidov tirik" degan gap kimlarnidir doim seskantirib tursin deb atay qo'ydim.

Xullas, "Sharof Rashidov tirik!" monografiyasi markaziy nashriyotlardan panoh topolmadi. Uni viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan "Ziyo" nashriyotida chiqarish taklifini qildik. A.Quljonov jon-jon deb rozi bo'ldi va kitobni faylasuf olim Ravshanbek Mahmudov so'zboshisi bilan 2000 nusxada chiqarishga muvaffaq bo'ldik.

Hayitboy MIRHAYDAROV,
Munavvar PARDAYEV

4

kulib boqadi deganlari rost ekan. Nihoyat 2015-yilda Guliston davlat universitetining 2-grant talabasi bo'lish baxti Shohsanamga nasib qildi. U Pedagogika fakultetining Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishlar yo'nalishiga qabul qilindi.

Universitet Shohsanamning orzu-intilishlarida bunchalik ulkan ahamiyat kasb etishini o'ylab, anglab yetmagan ekan. O'zida minglab xazinani mujassam etgan axborot-resurs markazi, H. Yodgorov, R. Ergashev, G. Dushayeva, H. Umarov, N. Misirovadek fidoyi o'qituvchilar uning chanqoq vujudiga malham bo'lishdi, ilm-fan sir-asrorlarini chin dildan o'rgatib, o'qishga bo'lgan shijoatini yanada jo'sh urdirishdi. Xususan, jonkuyar olim Hamid Yodgorovning tavsiyasi bilan o'qishning ilk bosqichlaridan ilmiy izlanishlarga kirishdi. Yosh talaba qizdagi qunt va layoqatni vaqtida ilg'ab olgan Hamid Ergashevich unga "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy matn ustida ishlashga o'rgatish" ilmiy-tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishni tavsiya qildi.

Bu Shohsanamning ayni ko'nglidagi mavzu edi. Ayniqsa, badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotni ko'p o'qiganligi unga qo'l keldi. Matnshunoslik, yosh avlodda matn ustida ishlash mas'uliyatini oshirish bugungi kunning dolzarb mavzularidan ekanligini endilikda u yaxshi biladi. Shohsanam shu kungacha bu mavzuda tayyorlagan 40 ga yaqin maqola

5

va tezislari bilan universitet, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlarda qatnashib keldi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta'limda o'qituvchining mahorati va pedagogik qobiliyat tizimlari, boshlang'ich ta'lim pedagogik texnologiyalardan foydalanish, kitobxonlik va badiiy tarjima mahorati, ma'naviy-ma'rifiy hamda ta'limda ekologik tarbiya mavzularidagi maqolalari ham talabchan ustozlar tomonidan iliq kutib olindi.

Bu yil Shohsanamning ilmiy izlanishlari juda sermahsul bo'ldi. U 30-31 may kunlari Ukrainaning Pereyaslav-Xmelnitskiy shahrida bo'lib o'tgan "Проблемы и перспективы развития науки в начале третьего тысячелетия в странах Евроазии» nomli Xalqaro ilmiy-amaliy internet konferensiyasida ilmiy maqolalari bilan qatnashib, sertifikat bilan taqdirlandi. Iyul oyida esa Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan ikkinchi xalqaro ilmiy konferensiyada o'z maqolasi bilan qatnashib, bu anjumanning ham sertifikatini olishga sazovor bo'ldi. Ilmiy maqola Sankt-Peterburgning «Молодой ученый» jurnalida chop etildi.

Shohsanam ilmiy-izlanishlar bilan birga jamoat ishlarida qatnashishga ham vaqt topadi. U 2017-yilda "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan o'tkazilgan "Mening biznes g'oyam" tanlovining respublika bosqichida faol

6

qatnashib, tegishli sertifikat sohibi bo'ldi. Shuningdek, "Harakatdagi yoshlar 2017-2021" forumida faol ishtirok etganligi uchun ham "Kamolot" Markaziy kengashi hamda "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan sertifikat bilan taqdirlandi.

Nihoyat iste'dodning olmos qirralari haqiqiy tovlana boshladi. Pedagogika fakultetining 3-bosqich talabasi Shohsanam Qayumova 2017-yilning oktabr oyida "Islom Karimov" nomli davlat stipendiyasining birinchi qaldirg'ochi bo'ldi. Bunday nomdor stipendiya ta'sis etilishining o'zida menimcha, katta bir majoziy ma'no bor: Axir Birinchi Prezidentimizning doimiy, alohida e'tibori tufayli ham bugungi yoshlar mana shunday: tili burro, tafakkuri keng, mustaqil, erkin fikrli bo'lib, ulkan natijalarga erishmoqda. Shohsanam hozirgacha erishgan yutuqlarini ulkan, yuqori natija deb hisoblamaydi, aksincha ulardan ruhlanib, yangi-yangi dovonlar ko'zlab boraveradi, boraveradi. O'qish, izlanishlaringda omad hamisha yor bo'lsin, aziz dugonajon!

Dildora ALIBOYEVA,
Pedagogika fakulteti boshlang`ich ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi
Suratda: Shohsanam Qayumova ustozi Hamid Yodgorov bilan.
Dilshod Mahmudov tasvirga olgan.

YURT MEHRI, SURURI TARAFDIR BIZGA,

Nodira G'OZIYEVA, 3-bosqich o'quvchisi, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi



VATAN

Yurtimiz tinch erur, hamisha obod,
Farovon xalqimning qalbi shod bo'lar
Ezgu niyatlarga beraylik qanot,
Bobom har tong turib tinchlikni tilar.

Senga fido bo'lsin jon-tanim manim,
Yagona, muqaddas Vatanim manim!

Bag'ringda shod erur baxtiyor bolang,
Yuksak cho'qqilarga tashlagan nigoh.
Vatanim, tingladi ollohim nolang,
Yurtboshim bizlarga bo'lmoqda panoh.

Senga fido bo'lsin jon-tanim manim,
Yagona, muqaddas Vatanim manim!

Mustaqil kun keldi, keldi davronlar,
Bizlarni kutmoqda yorug' kelajak.
Qalbimda yangraydi qo'shiq, navolar,
Shu yurtda iqbolim baxtim kulajak.

Senga fido bo'lsin jon-tanim manim,
Yagona, muqaddas Vatanim manim!

HAYOT

Tushunmagan ertagim mening,
Eh, bolalik ermagim mening,
Qalbda ungan kurtagim mening -
Hayot!

Poyoni yo'q yo'llarim mening,
Ko'kka yetar qo'llarim mening,
Eng chiroyli gullarim mening -
Hayot!

Tilloga teng bebaho vaqtim,
Yuragimda so'nmagay ahdim.
Shukur inson bo'ldim, shu - baxtim,
Hayot!

Sen qushlarga parvozga qanot,
Chorasizga berarsan najot,
Ilhom berding, etaman ijod.
Senga rahmat, ming rahmat hayot!

Diyorabonu OBILOVA

ONA

Hayotning mukammal mo'jizasi u,
Doim pokizadir, doim sarishta.
Dunyo tasavvuri qanday, bilmadim,
Men uchun yerdagi tirik farishta.

Ijod insonni hamisha intilishiga bugun bilan qoniqmaslikka doimiy izlanishga, uyg'oqlikka undaydigan jarayon. Shu ma'noda universitetimiz qoshidagi akademik litseyda tahsil olayotgan bir guruh umidbaxsh o'quvchi yoshlarning ijod namunalarini sizga taqdim qilar ekanmiz, ularda hammamizga begona bo'lmagan nozik tuyg'ularni o'ziga xos ifodalashga urinishni, bolalarcha beg'ubor samimiyatni ilg'adik.

Yo'ldosh Karim, shoir

Sizga atab go'zal, she'r yozsam deyman,
Shunday boshlanadi har on, daqiqam.
Jannat guldastasin sizga bergayman,
O'zingiz farishtam, sizsiz badiham.

Ne-ne shoir ahli madh etgan, ammo,
Ta`rif etolmagan, komil ishonchim.
Onam g'amgin bo'lsa, men ham g'amginman,
Onam xursand bo'lsa, ortar quvonchim.

Murg'ak vujudimni bir savol qiynar:
Onani e'zozlash yurak amringiz.
Nuri diydangizni har kun, har hafas
Yo'qladingiz ayting, qaysi biringiz?

Sukunatga cho'mdi bir zumda olam,
Ko'zlar namlandi va yurakda titroq.
Keragi yo'q, mehringizni jar solish,
Shunchaki "ona" deb ayting sekinroq.

Kechirar sizni ne qilsa ham ona,
Bunga shubha yo'q, bir shirin so'zingiz.
Savol paydo bo'lar faqat yagona —
Kechira olasizmi o`zni o'zingiz?

HAYOT QO'SHIG'I

Yur, hayot qo'shig'in birga aytamiz,
Kemtik ko'ngillarga umid beraylik.
Agar ko'kda bo'lsak yerga qaytamiz,
Visol bog'laridan gullar teraylik.
Nihol, ko'kka o'ssin bo'lmasin payxon,
Yoki u ulg'aysin bo'lib bir daraxt,
G'unchalar gulyuzi bo'lsin charog'on,
Betakror bo'yila aylasin sarmast.
Yur, hayot qo'shig'in birga aytamiz,
Qamar, Falak, zamin bizga mahliyo.
Samolarda bo'lsak, yerga qaytamiz,
Quyosh ham biz uchun sochajak ziyo,
Dunyoda shunchaki yashagim kelmas,
Qachondir, nimadir qilishim kerak.
Bag'ritosh, shafqatsiz yuraklar ichra,
Balki o'sha kundir bugun bilmadim,
Yetuk kelajakni boshlay qay ishdan ?
Taqdirim boshlasin bir yo'lga faqat
Qo'rqaman jo`ngina inson bo'lishdan.
Yur, hayot qo'shig'in birga aytamiz !
Axir bir marotaba berilar umr.
Vaqtingdan unumli foydalan sen ham,
Yaratganning bizga ne'mati shudir.
Yana o'sha cho'pchak, eski bir ertak,
Demoqqa oshiqma to'xtagin bir zum.
Hayotni qadrlab, hayotni sevsang,
Hayot o'zi seni qilar tarannum.
Yur, hayot qo'shig'in birga aytamiz!

Nasiba JO'RABOYEVA, 2-bosqich o'quvchisi

SHAMOL

Yugurasan, tinmay borliqdan,
Sen nelarni izlaysan shamol?
Ko'rinmaysan, sochim silaysan,
Tezligingdan men qolaman lol.

Sho'x boladay chopasan, shodsan,
Ayt, qaylarga buncha shoshasan?
Erta tongda go'yo shivirlab,
Sirlaringni bizga aytasan.
Majnuntolning sochlarin, mana,
Mayingina siypab turibsan.
Kuzataman, qalbimga shu dam
Bir iliq nur olib kiribsan.

DEHQON BUVAM

Mening saxiy dehqon buvam,
Bog'u bo'ston yaratgan.
Olma, anor, shaftolidan,
Xushbo'y hidlar taratgan.

Bodom, yong'oq pishganida
Hovuch-hovuch tutishar.
Oltin kuzning tashrifini
Bolajonlar kutishar.

Omon bo'lsin buvajonim,
Yuzga kirib yursinlar.
Mevalarni o'z qo'lida,
Bizga tutib tursinlar.

Nozima AHMADALIYEVA

O'ZBEKISTONIM

Men sening bag'ringda tug'ildim, o'sdim,
So'lim bog'laringda o'ynadim, kuldim,
Tog'laring havosi tiniq, musaffo,
O! Nurli makonim, o'zingsan tanho.

Dunyoda tengi yo'q go'zal diyorsan,
Burro tillarimda yangrar shiorsan.
Ezgu niyatlarga hamisha yorsan,
O! Jonim, jahonim, o'zingsan tanho.

To'rt fasl - to'rt xilsan, go'zalsan biram,
Bag'ringdan nur olar jumlai olam,
Quyoshning nuridan yaralgan yallam,
O! Tengsiz bo'stonim, o'zingsan tanho.

Boshingda oq ro'mol, kulib turasan,
Onamdek mehribon, duo qilasan.
Yiqilsam, qoqilsam, o'nglab qo'yasan,
O! Qutlug' qo'rg'onim, o'zingsan tanho.

UNING MADHIN BITMAK SHARAFDIR BIZGA

Sensiz hayot nima- qurib qolgan gul.
Sensiz hayot nima- yaralangan dil.
Meni ham o'zingning bir qisming deb bil,
O! Nurli makonim, o'zingsan tanho.

ONAM

Olloh sizni nedan yaratgan ekan,
Sabr toshidanmi, mehr nuridan?
Usiz bo'lar edi dunyo asli kam,
Allangiz joy olgan qalbim to'ridan.

Sizni farishtaga qiyos etgandim,
Ular ulug'likni sizdan olarkan.
Sabringizni toshdek qattiq degandim,
Sabringiz oldida tosh ham sinarkan.

So'zlaringiz shunday shirinligidan
"Bolaridan asal olgan-da", debman.
Lek labingizdagi tomchi asalga
Bolarilar bari havasda ekan.

Mehringiz quyoshning nuridek desam,
Ojizlik qilibman ta`rifingizga.
Asli to'g'ri bo'lar agar o'xshatsam,
Sizni quyoshgamas, quyoshni sizga.

Yangi oy chiqqanda uni ko'riboq,
Kamon qoshingizga o'xshatdim bexos.
Keyin bilsam, hilol qoshingiz ko'rib,
Andoza olibdi, qilibdi havas.

Siz mening baxtimsiz, qalbim quvonchi,
Hayotda suyanchim, tinchim, yagonam.
Dunyoni izlab hech qiyos topmasman,
Baxtim farishtasi, yolg'izim, onam!

Diyora BEKMIRZAYEVA,
2-bosqich o'quvchisi

BAXT

Yorug` kunlar oldinda hali,
Onajonim, also g`am chekmang.
Kelar albat ushalish gali,
Orzularim bisyor, unutmang.

Yuradigan yo`limga alvon
Gul-chechaklar to`shalib borar.
Rangin nurlar ulashar quyosh,
Ko`zlarimda kelajak kular.

Siz yonimda bo`lsangiz yetar,
Tilagingiz bo`lar muhayyo.
Men baxtliman, baxtiyor qizman
Kaftlarida ko`tarar dunyo.

OLTIN BALIQ

Uchratsam gar oltin baliqni,
Nimalarni so`rardim, qiziq?
Aytar edim avvalo bosar
Izlarimni qilgin deb qutlug`.

Ko`p narsani bilib olayin,
Aqlim to`lib ketsin bilimga.
Jo`shib she`rlar yozayin chunon.
Lol qolayin biyron tilimga.

Bolaligim ketmasdan olis,
Onajonim kulgusin ko`ray.
Baho berib barchaga xolis,
Inson uchun insofni so`ray.

Oltin baliq, tilaklarim mo`l,
Qay birini aytayin senga?
Eng keragi - yurtim bo`lsin tinch,
Xotirjamlik bergin elimga.

Sarvar O'RINBOYEV,
2-boqich o'quvchisi

VATANIM

Yurtim , sening madhingni,
Kuylay tildan qolguncha.
Yuragimda yashaysan,
Alloh jonim olguncha.

Bepoyon chamanzorsan,
Men undagi bir g'uncha.
Hayrat ichra sen cheksiz,
Barcha yurtdan ziyoda.

Chamanlararo tengsiz,
Yagonasan dunyoda.
O'tmishingga nazar solsam,
Sohibqironlaring bor.

Ulug'bekdek ko`kka narvon
Qo`yib o`tganlaring bor.
Navoiydek nazm bobida,
Yulduz, osmonlaring bor.

Minorlari moziy so`zlar,
Ulug` qo`rg`onlaring bor.
Chamanlar ichra tengsiz,
Yagonasan dunyoda.

Ko'z yosh to`ksam yupatguvchi,
Dardim aytsam darddoshim.
Dil gardlarimni artguvchi,
Sirim aytsam sirdoshim.

Sendek do'stim bordir mening,
Metin, bardam bardoshim.
Olqishlayman men seni ,
Doim bo'lgin yo'ldoshim.

Chamanlararo tengsiz,
Yagonasan dunyoda.
Orzularga yetaklaysan ,
Yo'latmay hech sitamga.

Kelajagim porloq etib,
Chorlaysan baxt go`shamga,
Tog'dek tirgagim o'zing ,
Nondek keragim o'zing.

Boshimni silaguvchi,
Otamdek ulug`vorim,
Chamanlararo tengsiz,
Yagonasan dunyoda.

OTA MEHRI

Gulmira ISLOMOVA,
301-guruh o'quvchisi

Dars qilib o'tiribmanu, lekin negadir xayolim boshqa narsada. Ha-ha, o'sha ko'ylakda! Halima juda omadi kulib boqqan qiz-da. O'zi yolg'iz farzand. Ota-onasi u nimani xohlasa shuni muhayyo qiladi. Meni bo'lsa...

Ha, mayli. Ammo Halima ega bo'lgan o'sha ko'ylak ko'z o'ngimdan sira ketmayapti-da. Etagidagi pushti gullari-chi? Nozik didli bu ko'ylakni yaratgan insonning o'zi ham kiygisi kelgan bo'lsa ajab emas. Lekin narxi sal balandroq ekan-da. Dadamga aytsam, olib berarmikanlar? Axir bitiruv kechamizga ham atigi uch kun qoldi.

Ertalab hammamiz dasturxon atrofida nonushta qilib o'tirgan edik. Men ikkilanib, zo'rg'a gap boshladim:

-Dadajon, dugonam Halima bitiruv kechamizga zo'r bir ko'ylak olibdi...

-Iye, qanaqa ko'ylak? Qanaqa bitiruv kechasi?- deb savol berdilar dadam.

-Axir men bitiruvchiman-ku.

-Yo'g'-e, maktabni bitirdingmi?

-Yo'q, dadajon, kollejni bitiryapman,-deb javob berdim-u dadamga hayratomuz nazar tashladim. Keyin oila tashvishlari-yu, o'zining ishlari bilan bo'lib yodidan ko'tarilgandir deb qo'ya qoldim ichimda. Dadam hech nima demasdan ishga ketdi.

Kechki ovqat paytida negadir dadamning kayfiyatlari yo'q edi. Kelib o'tirdilar-da onamga birmuncha pul uzatayotib:

-Olib qo'y, so'raganimda berarsan,- dedilar. Mening yuragim hapriqib, ich-ichimdan suyundim: «Nahotki dadam shu pullarga menga ko'ylak olib bersalar?!»

Ammo dadam dam olaman deb ichkari kirganlarida onam xuddi mening ichimdagini o'qiganday:

-Tag'in bu pulga umid qilib o'tirma, barchasining o'z joyi bor – dedi kesatiq ohangda.

Ich-ichimdan o'ksindim. "Onam baribir o'gayligiga boryapti-da",- dedim o'zimga o'zim. Qachon dadamga biron zarur narsani olib bering deguday bo'lsam, darrov ro'zg'or kamchiliklarini qalashtirib tashlaydi...

Mana, hamma orziqib kutgan kun ham keldi. Lekin men boshimni qaysi devorga urishni bilmayman. Chunki kiyishga birortayam o'zimga yarashadigan libosim yo'q. Endi nima qilaman, bormasammikan? Lekin bitirish marosimi umrda bir marta bo'ladi-ku! Keyin bu kunlar yana qaytib kelmaydi-ku! Lekin nachora. Menga nasib qilmagan ekan...

Xonamda shu tarzda xayol surib tursam, dadam kelib qoldilar.

- Xomush ko'rinasan, qizim, tinchlikmi? – deb so'radilar menga tikilgancha.

-Shunchaki o'zim,- dedim-u "ichimdagi dardimni siz qayoqdan ham bilardingiz" degan gap o'tdi xayolimdan. Ko'zimdan g'iltillab yosh chiqqanini o'zim ham sezmay qoldim. Dadam meni ohista bag'riga bosib, qadoq kafti bilan ko'z yoshimni artdi. So'ngra qo'lidagi chiroyli yelimxaltani menga uzatdi.

- Mana, qizim. Bu bitirish kuningga mendan sovg'a, olib qo'y, - dedilar.

- Bu nima, dadajon?

- Ochib ko'r, bilasan.

- Vo-oy!-deb yubordim xaltani ochib. Dadam Halimanikidan ham chiroyli ko'ylak olib kelgan edi.- O'zimning dadajonim! - degancha uning quchog'iga otildim.

... Kiyinib, bitiruv kechasiga ketarkanman, ko'zimga dunyo faqat yorug' ranglarda namoyon bo'lardi. Hatto kulimsirab meni kuzatayotgan onam bilan ham mayin tabassum bilan xayrlashdim.

Qo'sh sahifa materiallarini Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bo'limi uslubchisi Nargiza YULDASHEVA tayyorladi

AMALIY SEMINAR

2017-yilning 10-oktabr kuni Fizika-matematika fakultetida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi mazmun-mohiyatini o'rganish bo'yicha amaliy seminar o'tkazildi

Tadbirni "Axborot texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi M.Niyozov olib bordi. U o'z fikr-mulohazalarini, ya'ni amaliy seminardan ko'zlangan asosiy maqsad -O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi mazmun-mohiyatini o'rganish bo'yicha oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi dasturi ishlab chiqilib, dasturga muvofiq universitetning barcha fakultet talabalari hamda professor-o'qituvchilarni to'liq qamrab olgan holda nutqning mazmun mohiyatini o'rganishga qaratilgan tadbirlar o'tkazilayotganini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'ng monitorda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi videosi namoyish etildi.

So'ngra O'zbekiston "Adolat" SDP Sirdaryo viloyat kengashi raisi o'rinbosari A.Eshonxonovning "Tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida hamkorlikni kengaytirish sari", O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Sirdaryo viloyat kengashi raisi o'rinbosari S.Sultonovning "Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga doir huquqiy hujjatlar" mavzularida ma'ruzalari tinglandi. Universitetning ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Sh.Abdurasulov, "Universitet ovozi" gazetasi tahrir hay'ati a'zosi, katta o'qituvchi Y.Karimovlar o'z ma'ruzalarida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bildirilgan fikrlar, O'zbekistonning tinchlik, xavfsizlik masalalariga doir nuqtai nazari va buning xalqaro ahamiyati haqida to'xtalishdi.

Seminar ishtirokchilar va mehmonlar bilan ochiq-muloqot tarzida davom ettirilib, savol - javoblarga boy bo'ldi.

R.Xudoyorova

Amaliyot taassurotlari

BO'LAJAK KASBIM - FAXRIM

Kunlardan birida qorni ochgan bir kishi ko`l bo`yida baliq tutib turgan donishmandga duch kelib, unga:

-Men ochman, yordam bering! - deb murojaat qilibdi.

Donishmand unga shunday javob qaytaribdi:

-Men senga baliq berishim mumkin, sen tez to`yasan. Lekin biroz vaqt o`tgach, och qolib mendan yana yordam so`raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin qarmoq qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojaat qilishingga to`g`ri keladi. Kel, yaxshisi, men senga qarmoq yasashni o`rgataman - bu uzoq va qiyin ish, lekin kelgusida senga mening yordamim kerak bo`lmaydi. O`z yo`lingni tanla.

Qissadan hissa shuki, o`qituvchi o`quvchiga faqat bilim berib qolmasdan, bilim olish metodlarini ham o`rgatishi kerak. O`quvchi esa bu metodlarni yaxshi o`rganib, o`zi mustaqil bilim olishni o`rganib olishi lozim.

Universitetimizni juda yaxshi ko`raman. Bu yerdagi pedagoglarning barchasi juda ham bilimli va izlanuvchan. Biologiya o`qitish metodikasidan dars bergan o`qituvchilar M. Allamurodov va R. Bozorova domlalarimiz bizga dars o`tish metodikasini juda mohirona tushuntirib bergan.

Ana shunday aziz ustozlar bergan bilimlarni mustahkamlash maqsadida biz, 7 nafar kursdosh Guliston shahar 6-umumta'lim maktabiga pedagogik amaliyot o`tash uchun bordik. Maktab ostonasiga ilk qo`ygan qadamimizni, o`sha vaqtda paydo bo`lgan hayajonni hech qachon esdan chiqara olmasak kerak. Maktabga borgan kuniyoq biologiya o`qituvchisi Nilufar opa Xudoyqulova bizni juda xursand kayfiyatda kutib oldi. Opaning kiyinishi, darsda o`zini tutishi o`quvchilar bilan munosabatini ko`rib, o`qituvchi ulug` zot ekanligini yana bir bor anglab yetdik. Amaliyotimizning ikkinchi kuni Nilufar opa meni 10-B sinf o`quvchilariga tanishtirdi:

-Bu opalaringiz universitet talabasi, bo`lajak o`qituvchi. Hurmat qiling , uningday talaba darajasiga yetishga harakat qiling,- dedi va o`quvchilar bilan yolg`iz qoldirdi. Ularga mavzuni tushuntirar ekanman, hayajonimning cheki yo'q edi. "Meni pisand qilmay, gaplarimni hech kim tinglamayotgan bo'lsa-ya?"-degan savol kemirardi ich-etimni. Lekin darsim yomon o`tmadi. Demak, o`qituvchilarim bergan bilimlarni sal bo'lsa-da oqladim.

Shu kuni boshqa kursdoshlarim: Xursandbek, Sanjar, Sherzod, Avazbek, Jonibek, Maftuna, Mahliyolarning darslari ham yomon chiqmabdi. Shu-shu maktabga har kuni yuragimda g'urur va quvonch hislari bilan keladigan bo'ldim. Darsga kirgan sinfim o`quvchilariga juda o`rganib qoldim. Ularning "ustoz" deb murojaat qilishlari qulog`im ostida hali-hali jaranglaydi. Maktabda o`qituvchi uchun zarur bo`lgan barcha hujjatlarni o`rganib oldim.

Amaliyot davridagi eng esda qolarli voqealardan biri 1-oktabr, o`qituvchilar va murabbiylar bayrami bo'ldi. Shunda o`quvchilarning sinf rahbarlari va boshqa o`qituvchilrga bo`lgan hurmati, e`zozi, ularga atab o'qigan she'rlari, kuylagan qo'shiqlari meni batamom asir etdi, o`qituvchilik kasbiga bo'lgan mehrimni, qiziqishimni yanada oshirdi.

Xullas, qisqa vaqt ichida maktabga, ishga, o'quvchilarga shu darajada bog'lanib qoldikki, amaliyotimizning yakunlanishini umuman xohlamasdik. Shuningdek, biz dars o`tgan va sinf rahbarligi qilgan sinflarning o`quvchilari ham bizga o'rganib, ketkazishni sira xohlashmasdi. Ular bilan esdalikka rasmga tushdik.

Biz amaliyotdan universitet bag'riga qaytar ekanmiz, o'zimizni butunlay boshqacha odamga aylanib qolganday his qilardik. Haqiqatan ham bor-yo'g'i bir necha haftalik amaliyot biz, talabalarda o`zimizga bo'lgan ishonch va o'qituvchilik kasbiga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg`ularini bir necha karra oshirgan edi.

Oydin SA`DULLAYEVA,
Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo`nalishining 4-bosqich talabasi

Kitobxonlik haqida o'ylar

MA'NAVIY UYG'ONISH OMILI



Ta'lim jarayonida o'quvchi-yoshlar ongiga yetuk asarlardagi g'oyalarni singdirish, ibratli xususiyatlarni shakllantirish katta o'rin tutadi. Buning uchun kitobxonlik darajasini yuqoriga ko'tarmoq lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ko'tarilgan ushbu muammo muhim didaktik zarurat hisoblanadi. Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish haqidagi farmondan so'ng maktablarda qaytadan "Kitob do'stlari" nomli to'garaklar tashkil etila boshlandi. Ushbu to'garaklar sinfdan tashqari o'qishni tashviq etishda o'qituvchining yaqin ko'makchisiga aylanayotir. Bu jarayon o'quvchilarga badiiy adabiyot namunalarini taqdim etishning ta'sir kuchini oshirish yo'llarini izlashni taqozo etadi. O'quvchilarning sinfdan tashqari mashg'ulotlarini o'rganish va uni to'g'ri uyushtirish maqsadida o'qituvchi maktab kutubxonasi bilan yaqin aloqada bo'lishi kerak.

Agar o'quvchi-yoshlar kitob mutolaasi bilan muntazam shug'ullansa, asarlarning asl badiiy qimmatini anglaydi, obrazlarga hayotiylik nuqtai nazaridan yondashadi, ularda samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

O'quvchining qanday kitoblar o'qishi, bu kitoblarni qayerdan olishi, uning shaxsiy kutubxonasidagi kitoblarning xarakteri, kitob o'qishda kimlardan maslahat olishi, shu kitoblar uning yosh xususiyatiga qanchalik mosligi masalalarini puxta o'rganish har bir o'qituvchining muhim vazifasidir.

Jadid mutafakkirlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat, Tavallolar maktab ochib, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga, kitob o'qishga da'vat etganlar. Ularning bu ishlari uchun hech kim maosh to'lamagan.

Turkman yozuvchisi N.Sarixanovning "Kitob" nomli hikoyasida turkman xalqining o'tmishi qalamga olingan. Asarla xalqning ma'rifatga intilishi, og'ir turmush tufayli aholining ko'pchiligi savodsiz bo'lganligi hamda bularning asosiy sabablari ta'sirchan qilib ko'rsatilgan.

Hikoyada bir savodsiz cho'pon bozorga boradi. U yerda bir kishi baland ovoz bilan Maxtumqulining she'larini o'qib turganligini ko'radi. Bu she'rlar unga qattiq ta'sir qilib, guyoki uning o'zi haqida yozilganday tuyuladi. Keyin kitobni qanday bo'lmasin, sotib olishga harakat qiladi. Nihoyat, bozorga minib kelgan tuyasiga almashtiradi. Uyga kelganda xotini unga kitobni o'qiy olmaysan-ku, nega olding? -deb janjal ko'taradi. Ana shu cho'pon Mahtumqulining qo'lyozma kitobini 40 yil avaylab saqlaydi. Keyin uning nabirasi bu kitobni unga o'qib beradi. Chol kitobda yozilgan she'rlarning barchasini yodlab oladi. Bu hikoyada oddiy turkman xalqining ma'rifatga intilishi ko'rsatilgan.

Har bir asar qaysi zamonni aks ettirishi, qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar butun bashariyatga xizmat qilsa, u adabiyotning haqiqiy namunasi hisoblanadi. Zero, atoqli yozuvchimiz O'tkir Hoshimov aytganidek: "Ikkita eng xolis hakam - kitobxon va vaqt sinovidan o'tgan asar haqiqiy asardir".

O'qituvchi bilan o'quvchining ma'naviy birligini ta'minlaydigan omil - haqiqiy kitobxonlikni tashkil qilish lozim. Toki o'quvchi yoshlar o'qigan kitobidagi so'zning go'zalligini his etsin, aks holda ular tashqi olam go'zalligini ham ko'ra olmaydi.

Demak, kitobxonlik bilan doimo shug'ullanish zarur. Chunki kitob mutolaasi tufayli dunyoqarash o'sadi, inson ma'naviy jihatdan yuksaladi. Bundan tashqari kitob mutolaasi o'quvchilarni mantiqiy va obrazli fikrlashga o'rgatadi, ularning tasavvur olamini, estetik hissiyotlarini rivojlantiradi, badiiy asarlarni tahlil qilish malakasini shakllantiradi. Natijada o'quvchi-yoshlar ongida ma'naviy uyg'onish va g'oyaviy yangilanish paydo bo'ladi.

Maqsuda SARIBOYEVA,
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti

Ilm-fan va hayot

«AXBOROT KUNI»

2017-yilning 6-oktabr kuni Guliston davlat universitetida "Axborot kuni" o'tkazilib, unda bir qator oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilaridan vakillar, Xalqaro aloqalar bo'limi xodimlari, TempusG'ErasmusQ dasturlari loyiha jamoalari vakillari, O'zbekistondagi Milliy Erasmus+ ofisi (NEO), Oliy ta'lim islohotlari ekspertlarining milliy jamoasi (HERES) ishtirok etdi. Tadbirda Erasmus+ dasturlarida ishtirok etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etildi va loyiha takliflari ishlab chiqildi.

O'zbekistondagi Milliy Erasmus+ ofisi (NEO) eksperti Bahodirjon Qudratov Erasmus+ dasturlaridagi OTMlar uchun hamkorlik imkoniyatlari, takliflar uchun yangi chaqiruv va 3-chaqiruvning tanlov natijalari, Erasmus Mundus Hamkorlik Magistratura Dasturlari (EMJMD), Jan Mone faoliyati, Chet davlatlarga stajirovkaga magistratura dasturlari bo'yicha Guliston davlat universiteti bilan hamkorliklarini kuchaytirish yo'l-yo'riqlari to'g'risida hikoya qildi. Shuningdek "Axborot kuni"da HERES milliy jamoasining vakili Zeboxon Isakova Xalqaro texnik yordam missiyasi seminari "Milliy malakalarning Oliy ta'lim siyosati islohotlaridagi tutgan o'rni", Yevropa mamlakatlari talim va madaniyati haqida qisqacha gaapirib berdi.

Shuni ta'kidlash joizki, universitetimizda Erasmus+ RENES loyihasi bo'yicha, xususan, Qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror atrof-muhit sohasida magistrlik dasturini ishlab chiqish (15.10.2016 - 15.10.2019) dasturi bo'yicha bir qator quvonchli natijalarga erishildi.

Bu borada O'zbekiston Milliy universiteti yetakchi o'rin egallab kelayapti. Chunonchi, O'zMUda geliofizika va quyosh energiyasidan foydalanish magistratura mutaxassisligining namunaviy o'quv rejasiga asosan talaygina fan dasturlari tayyorlangan.

A.Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetida ham geliofizika va quyosh energiyasidan foydalanish magistratura mutaxassisligining namunaviy o'quv rejasiga asosan dasturlar tayyorlangan. Biroq yuqorida keltirilgan fan dasturlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, quyosh energiyasidan magistratura mutaxassisligi uchun tayyorlangan fan dasturlari materiallari faqat yarim o'tkazgichlar asosida quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish muammolariga bag'ishlangandir. Quyosh qurilmalari va ularning tuzilishi, ishlash printsiplari, quyosh qurilmalarining tiplari to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan. Undan tashqari magistratura yo'nalishi bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarga chet ellarda yaratilgan quyosh qurilmalari, ularning tuzilishi va ishlash printsiplari to'g'risida ma'lumot berilmagan.

Guliston davlat universitetida fizika mutaxassisligi bakalavr talabalari uchun quyosh energiyasidan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligida foydalanishning fizikaviy asoslari maxsus kursi o'qitiladi. Bu kursda asosan quyoshning tuzilishi, uning spektral tarkibi, past va yuqori haroratli quyosh qurilmalarining tuzilishi, ishlash prin_siplari va samaradorligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Yuqoridagi maxsus kurs asosida fan dasturi tayyorlangan. Fan dasturida quyosh energiyasidan samarali foydalanish muammolari bo'yicha 32 soatlik ma'ruza, 32 soatlik amaliy mashg'ulot uchun reja tuzilgan.

"Axborot kuni" ishtirokchilari bu va shunga o'xshash masalalar haqida batafsil ma'lumot olib, so'ng fikr almashdilar. Navbatdagi axborot almashish uchrashuvini Germaniyada o'tkazishga kelishib olindi.

Shovqi NIYAZOV,
dotsent, loyiha koordinatori

IJODGA BAXSHIDA UMR

XOTIRA

El sevgan ijodkor, zahmatkash olima, Gyote asarlarini ona tilimizga asliyatdan mahorat bilan o'girgan hassos tarjimon Yanglish Egamovaning kutilmaganda vafot etgani haqidagi qayg'uli xabarni eshitib, yuragimiz g'am-alamga to'ldi. Axir, yaqindagina "Do'rmon" Ijod uyida mustaqillik bayramiga bag'ishlangan tantanali anjumanda ko'rishgan, Yanglish opani "Vatan uchun yashaylik" tanlovi g'olibi bo'lgani bilan samimiy tabriklagan edik. Opa ijodkor do'stlari, muxlislari orasida qanchalar quvongan edilar-a o'shanda. Talabaligimizdan bizga "Yosh Verterning iztiroblari"dek buyuk sevgi romanini o'zbek tilida mutolaa qilish zavqu hayajonini tuhfa etgan mohir tarjimonning bizni tashlab ketishini hech qachon xayolimizga ham keltirmagan edik. Lekin afsuski, taqdir yo'rig'i oldida inson hamisha ojiz ekan. Qalbimizda chuqur iztirob bilan marhumaning oila a'zolari, yoru do'stlariga hamdardlik bildiramiz, sabr tilaymiz.

Yanglish Egamova 1943-yilning 2-mayida Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Olchin qishlog'ida tug'ildi. Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining Xorijiy filologiya fakultetida tahsil olgach, mehnat faoliyatini G'allaorol tumanidagi 22-maktabda nemis tili o'qituvchiligidan boshladi.

Yanglish Egamova chet tilini chuqur o'rganib, filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasini himoya qildi, dotsent unvoniga sazovar bo'ldi, ko'p yillar davomida yoshlarga til va tarjima ilmidan saboq berdi. Biroq eng muhimi, Yanglish opa ulug' nemis allomasi, jahon xalqlarining sevimli adibi, shoiri, dramaturgi logann Volfgang Gyote asarlarining tarjimoni sifatida dong taratdi, butun umri davomida o'z ijodi bilan xalqaro adabiy aloqalar va badiiy adabiyot rivojiga fidokorona xizmat qildi.

Yoshligidan jahon adabiyoti durdonalari sehriga oshufta bo'lgan, badiiy tarjima sohasida havas bilan qalam tebratgan Yanglish Egamova 1975-yilda Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" romanini G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida nashr ettiradi. Shundan so'ng Bruno Apitsning "Qashqirlar changalida" romani, Volfgang Borxertning hikoyalari, Firts Vyurtlening Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi "Andijon shahzodasi" qissasi, Gyotening "Muhabbatnoma" nomli saylanma kitobi, "Yosh Verterning iztiroblari" (qayta nashr), "Hamroz dillar" romanlari Yanglish Egamova tarjimasida chop etildi.

Yohann Peter Ekkermanning Gyote hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Gyote bilan gurunglar" nomli yirik kitobining Yanglish Egamova tarjimasida nashr etilishi adabiyot olamida ulkan voqea bo'ldi.

Yanglish opa butun umrini badiiy tarjima va tarjimashunoslikka baxshida etdi. Uning tarjima nazariyasi va til ilmiga oid ilmiy maqolalarining nomini sanasak, juda uzun ro'yxatni tashkil etadi.

Yanglish opa mehribon, oqko'ngil va fidoyi inson edi. U ijodi va faoliyati bilan juda ko'p ijodkorlarning ustozi bo'lgan, badiiy ijodda yoshlarning o'zi yo'lini topishida bevosita g'amxo'rlik qilgan edi. G'arbning daho shoirining Sharq mumtoz adabiyotiga oshiq bo'lib yongan yuragini ona tilimiz ufqida quyoshdek porlashi uchun necha tunlarni tonglarga ulab, shamdek so'zona yonib mehnat qilgan mohir tarjimonning nomi hech qachon unutilmaydi.

Taniqli ijodkor, zahmatkash olima, mehribon ustoz, g'amxo'r va olijanob inson Yanglish Egamovaning yorqin xotirasi uni yaxshi bilgan va ardoqlagan yoru do'stlari, ming-minglab kitobxonlar qalbida abadiy yashaydi.

Iloyo, Yanglish opaning joylari jannatdan bo'lsin.

Rustam MUSURMON,
Adhambek ALIMBEKOV,
Munavvara USMONOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining mas'ul xodimlari

ALVIDO, USTOZ!

Endi hayotimda Siz yetishmasligingizni o'ylasam, yuragim orqaga tortib ketadi. Ayniqsa so'nggi paytlarda: "Dangasalikni yig'ishtiring, Salomat! Jiddiy tarjimalar bilan shug'ullanishni boshlang. Vaqt o'tib borayapti", - degan dakkilaringizdan xulosa chiqarib, nemis tilidan tarjima qilishga astoydil kirisha boshlagan edim. Ayrim mashqlarimni ko'rib: "Mana, bo'lar ekan-ku!" – deb ko'nglimni ko'tarib ham qo'ygandingiz. Endi kim menga bunday jonkuyarlik ko'rsatadi? Kim mening qo'limdan yetaklab, tarjima san'atining sehrli saltanatiga boshlaydi? Yoki o'g'lingiz yoniga shoshdingizmi, ustoz? Axir hali qiladigan ishlaringiz ko'p edi-ku!

Sizga birgina men emas, hamma havas bilan qarardi. Lekin boshingizga tushgan g'am-tashvishlarni hamma ham bilmasdi. Uzoq tog' qishlog'ida, urush yillari og'ir kechgan bolaligingiz, igna bilan quduq kavlab yoqlagan nomzodlik dissertatsiyangiz, oiladagi qator yo'qotishlaringiz yuragingizni charchatdi. Hamisha dildosh, yo'ldosh va qo'ldosh Vahob akaday ulug' inson Sizga hamdard-hamnafas bo'lgani, ishingizni, ijodni sevganingiz uchungina irodangiz turmushning og'ir sinovlariga dosh bergan bo'lsa kerak. Sizning ulkan bobur shunos olim Vahob Rahmonov bilan birgalikda forsiydan Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy" asarini o'zbekchaga mukammal tarjima qilganingiz, avstriyalik yozuvchi Frits Byurtening "Andijon shahzodasi" qissasini nemischadan o'girganingiz munosib baholanib, Sizga va Vahob Rahmonovga haqli ravishda Xalqaro Bobur nomidagi mukofot berilgan edi. Bundan tashqari Sizning sharofatingiz bilan o'zbek kitobxonlari V.Ekkerman, M. Noymann, V. Hildeshaymer, B. Brext, M.L. Kashnits kabi adiblarning bebaho asarlaridan bahramand bo'lishgan edi. Siz O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi degan nomga har tomonlama munosib, tarjima san'atini yangi bosqichga ko'targan ajoyib ijodkor edingiz.

Bulardan tashqari Guliston davlat universitetidagi 40 yillik faoliyatingiz davomida yuzlab qobil shogirdlar yetishtirdingiz, matbuotda til o'rganish muammolariga bag'ishlangan 70 dan ortiq ilmiy maqola chiqardingiz. Demak, bir yetuk fuqaroga ne-ki joiz bo'lsa, hammasini bajaribsiz. Shu fikrgina o'zining tog'day buyuk ustozini yo'qotgan men, bandai ojizaga taskin beradi. Ilohim, jannat bog'larida sayr qilib yurgan bo'ling, alvido, ustoz!

Salamat HATAMOVA,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi nemis tili o'qituvchisi.

FAVQULODDA VAZIYATLAR BOSHQARMASI OGOHLANTIRADI

ESLATMA

Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 70 foiz zararli komponentlar organizmga oziq-ovqat mahsulotlari orqali tushadi. Go'sht, baliq va sabzavot mahsulotlarini termik ishlovlarsiz, ayniqsa yozgi davrda iste'mol qilish ovqatdan zaharlanishga sabab bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlaridagi mikroorganizmlar xona haroratida intensiv rivojlanib boshlaydi. Natijada disbakteriozning rivojlanishida qiyinchiliklar yuz berib, oshqozonning normal mikroflorasi kasallikdan so'ng doim ham tiklanavermaydi. Mana shuning uchun ham o'z holicha davolash maslahat berilmaydi.

Konservalarning to'liq sterilizatsiya qilinmasligi toksinlar bilan zaharlanishga olib kelib, botulizmni keltirib chiqaradi.

Oziq-ovqat rang beruvchilari mahsulot (gazli suv, muzqaymoq, pishloq, konfetlar nachinkasi)ning rangini o'zgartiradi yoki niqoblaydi. Rang beruvchilar sifatida suyultirilgan shakar (kola), toshko'mir smolasidan ekstralashtirilgan va sintezlashtirilgan kimyoviy moddalar juda xavflidir.

Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlari va oqilona ovqatlanishning sifatini nazorat qilish nafaqat organizmning ichki muhitiga real zo'riqishni pasaytiradi, balki uning noqulay sharoitlarga mustahkamligini ham oshirib, o'rtacha umr ko'rishni uzaytirib go'daklar o'limini kamaytirishga katta yordam beradi.

Sirdaryo viloyati favqulodda Vaziyatlar boshqarmasi aholini va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazi

DIQQAT!

Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda:
1050
225-13-09
225-14-63
telefon raqamlariga xabar bering!

KECHINMA

KUZ XAYOLLARI

Serqatnov ko'cha bo'ylab ishga otlanaman. Kech kuzning erta sahargi mayda yomg'iri yuzlarimga urilib mayin tovush chiqaradi. Oyog'im ostida namiqqan xazonlarning shitiri yangraydi. Bularning hammasi yaxlit bir ohangga aylanib, hayot kuyini chalayotganday. Eng avval erka yaproqlarni shamol o'z zabtiga oladi. Butun borliq kuzning og'ushida yal–yal yonayapti. Bobom kechagina yerga o'tqazgan nihol avval gulga kirdi. Keyin meva soldi. Bugun esa barglarini to'kmoqda. Mana, oddiygina hayot falsafasi. Tug'ilish va o'lim o'rtasidagi masofa...

Kuz insonni chuqur o'yga toldiradigan donishmand fasl. Olov rangga kirib birma–bir bandidan uzilib, yerga qulayotgan yaproqlarni inson umriga qiyoslasa bo'ladi. Hayot ba'zan turli xil sinovlaru iztiroblardan iborat bo'lib qoladi. Qarshimizda turgan tashvishlar oldida ojizlashib qolamiz. O'shanda ich–ichimizdan judayam horiganimizni his qilamiz. Ammo bizni o'rab turgan borliq, atrofimizdagi mavjudlik umr insonga bir marta berilishini, hayot hamisha muammolari va sinovlari ila go'zalligini eslatib qo'yadi. To'g'ri, yashash bu–kurashish, yashash bu–xatolar qilish. Ba'zi xatolar gunohlarga qorishib, vijdon azobiga qo'yadi...

Meni o'z manzilim sari eltayotga bu yo'l o'z bag'rida qanchadan–qancha izlarni asraydi. Qanchadan–qancha fasllarni ko'rgan. Endi bo'lsa, gal kelib men ham bu yo'ldan o'tib boryapman. O'tib... boryapman–u biron iz qoldiryapmanmi? Axir buyuk Xayyom aytganiday:

Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy,
Ketdilar, ketamiz,
kelganlar ketar...

Bugungi ish kunimni yakunlab, yana o'sha yo'ldan uyga qaytaman. Ertalabki yomg'ir zaminning jamiyki g'uborlarini yuvib, hayotni yangilab berganday. Kuzning sof va beg'ubor havosi o'pkamni to'ldiradi. Olis–olislardan esib kelayotgan salqin shamol cheksiz dalalarda yastanib yotgan paxtazorlar hidini dimoqqa uradi. Meni qurshab turgan borliqning ta'rifini hech bir so'zga sig'dirolmayman. Faqatgina ich–ichimdan shivirlayman:

–Ey Hayot, bu qadar laziz va aziz bo'lmasang! Senda yashagim keladi, zavqlanib, to'lib–toshib yashagim keladi...

Maqsuda JO'RAQULOVA

LATIFALAR

Domla:
- Berdiyev, nega hadeb soatga qarayapsiz?
Talaba:
- Shunday qiziqarli darsingizni qo'ng'iroq buzib qo'ymasmikan, deb xavotirdaman, domlajon.

☆☆☆

Talabaga eslatma:
- Hurmatli talaba, leksiya vaqti xurrak otmang, yoningizdagini uyg'otib yuborasiz!

☆☆☆

Professor:
—Aytingchi, yurak qayerimizda joylashgan?
Talaba:
— Ko'krak qafasimizda.
Professor:
— Noto'g'ri. U yurak sumkachasida joylashgan.
Talaba:
— Unda menga ham bir savol berishga ruxsat eting. Hozir siz qayerda turibsiz: auditoriyadami, yo kostyumingizning ichidami?

☆☆☆

Kimyo fani bo'yicha imtihon. Ustamon talaba imtihondan yiqildi. Imtihon oluvchilardan biri hazil tariqasida savol berdi:
- Gazli suvning formulasini bilasizmi?
Talaba darrov javob qildi:
- Sizga siroplisi kerakmi yoki oddiysi?

MAGDEBURG SUV KO'PRIGI

Biz bilgan bilmagan dunyo

Germaniyaning yigirma birinchi asrdagi eng go'zal inshootlaridan hisoblangan bu ko'prik Magdeburg markazidan o'n kilometrcha narida qurilgan bo'lib, uzunligi 918 metr. Ko'prik faqat go'zallik uchun qurilgan emas, u mamlakatning eng yirik sanoat markazi – Rur vodiysiga o'tish vositasidir. Suv ko'prigi yonma–yon o'tuvchi ikki yirik suv yo'li – Elba va O'rtaolmon kanallarini tutashtirgan.

Bu ko'prikni qurish o'ta muhimligidan dastlabki loyihalar hali 1919–yildayoq paydo bo'lgan edi. 1938 yilda Rotenzeyda kemalarni ko'tarish inshooti qurildi, ko'prikning asosiga doir ishlar ham nihoyasiga yetkazib qo'yilgandi. Biroq, ikkita Jahon urushi, va Sovuq urush davrlarini bevosita boshidan kechirgan Germaniyaning yangi ko'prik qurilishini tugallashga holi yo'q edi.

Ikki Germaniyaning yana yagona davlat bo'lib birlashgani ulkan suv inshootiga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Nihoyat 1997–yilda qurilish ishlari jadal boshlanib, 2003–yilning oktyabrida nihoyasiga yetdi. Unga 68 ming kubometr beton va 24 ming tonna sof po'lat sarflandi. Ko'prik dunyoga kelguncha Berlindan yo'lga chiqqan kemalar Rotenzey darg'asi orqali yuqori ko'tarilib, so'ng 12 kilometrlik masofani ortiqcha bosib o'tar, shundan so'ng yana Elbada yo'l bosib, yana «Nigripp» darg'asi orqali ko'tarilishga majbur edi. Endilikda bu mo'jizakor inshoot Berlin shahrining ichki bandargohini Reyn bandargohlari bilan to'g'ridan–to'g'ri ulaydi.

Guliston davlat universiteti rektorati va kasaba uyushmasi filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yanglish Egamova
vafot etganligini chuqur qayg'u bilan bildirib, marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga samimiy hamdardlik izhor etadi.

QADRLI GAZETXON!

Sizga yaqin maslahatgo'y, suhbatdosh va komil inson bo'lishingizda hamisha safardosh bo'lgan gazetangiz "Universitet ovozi"ga 2018-yil uchun

obuna boshlandi.

Obuna barcha fakultetlarda tashkil qilingan.

Gazetamizning yillik obuna narxi bulturgi hajmda qoldirildi.

2018-yilda "UO" sahifalarida talabalar va ustozlarning eng sara maqolalarini, ijod namunalarini e'lon qilish mo'ljallanmoqda.

"Universitet ovozi"ga obuna bo'ling, yutqazmaysiz!

Universitet OVOZI
Ta'limiy, madaniy-ma'rifiy nashr

Bosh muharrir
Munavvar PARDAYEV

TAHRIR HAY'ATI
Botir ZAKIROV
Faxriddin NIYOZOV
Amaliddin SULAYMONOV
Fazliddin SHARIPOV
Yo'ldosh KARIMOV
Sarvinoz QURBONBOYEVA

Muassis: Guliston davlat universiteti

Gazeta 2009-yil 20-fevralda Sirdaryo viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 10-031-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks 6047,
ISSN raqami 2181-5828

Tahririyat manzili:
Guliston shahri, 4-mavze. GulDU, 2-TTJ . 1-qavat, 108-xona.
Telefon: 225-05-54.
E-mail: universitetovozi56@umail.uz

Nashr uchun mas'ul: Abdurasul SODIQOV
Sahifalovchi dizayner: Farhod RO'ZIQULOV

«Universitet ovozi» gazetasi tahririyatida sahifalanib, «Шердор Плюс полиграф» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 82-uy.

Qog'oz bichimi A-3. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma №
Bahosi kelishilgan narxda. Chop etishga berilgan vaqti 30. 10. 2017-yil.